

## MAKTABDA BIOLOGIYA DARSLARINI O'TKAZISHDA YANGI INTERFAOL METODLARNING O'RNI

Sattarova Bahora

*SamDU, Biokimyo Instituti Biologiya yo'nalishi 4 – kurs talabasi*

**Islamov Bo'ston Sultanovich**

*SamDU, Biokimyo Instituti Botanika kafedrasи Dotsenti, Ilmiy rahbar.*

O'zbekistonda Muhtaram Prezidentimiz rahnamoliklarida ta'lrim tizimida juda katta mablag' tashlanmoqda. Ta'limga tashlangan investitsiya albatta ziyodasi bilan qaytishini butun jamiyatimiz tushunib oldi. Bu esa ta'lrim tizimiga bo'lgan e'tiborni tobora ortib borishiga olib kelmoqda.

Yangi O'zbekistonimizning gullab yashnashi, kelajagimiz rivojlanishi faqat yoshlarning ta'lrim va tarbiyasiga bog'liq. Buning uchun maktablarda ijodiy fikrlaydigan, zamonaviy sharoitlarga moslasha oladigan shaxslarni tayyorlashga, tarbiyalashga alohida e'tibor qaratish lozim. Bu muammoni o'quv jarayonida o'quvchilarning bilish faolligini oshirish orqali hal qilish mumkin. Faol ta'lrim usullaridan foydalanish o'quvchilarni ijodiy, mustaqil shug'ullanishlariga olib keladi. Faol, interfaol ta'lrim shakllari va usullari yordamida ba'zan ananaviy mashg'ulotlarda erishilmagan ko'plab muammolarni samarali hal qilishimiz mumkin. Faol ta'lrim natijasida o'quvchilarda kasbiy qiziqishlarni ortishiga, mustaqil fikrlashni shakllanishiga yordam beradi, jamoaviy va amaliy ishlarni o'rgatadi, tezkorlikni oshiradi, muloqot ko'nikmalarini, qarorlar qabul qilishni rivojlantiradi, mehnatga ma'suliyatlari munosabatni va turli qadriyatlarni tarbiyalaydi.

Interfaol ta'lrim tizimida ananaviy ta'lrim texnologiyalaridan voz kechmagan holda yangi pedagogik texnologiyalaridan foydalanish o'rini hisoblanadi. Pedagogik texnologiya - ta'lrim metodlari, usullari, yo'llari hamda tarbiyaviy vositalar yig'indisi: u pedagogik jarayonning tashkiliy - uslubiy vositalari majmuidir. Demak, pedagogik texnologiya o'quvchilarga (ta'lrim – tarbiya oluvchilarga) oldindan belgilangan maqsad bo'yicha ta'sir o'tkazish faoliyatidan iborat. Pedagogik texnologiya o'quvchini mustaqil o'qishga, bilim olishga, fikrlashga o'rgatishni kafolatlaydigan jarayondir. Demak yangi pedagogik texnologiya jarayonida o'qituvchi rahbarligida o'quvchi mustaqil ravishda bilim oladi, o'rganadi, o'zlashtiradi. Bunday ta'lrim jarayonini amalga oshirish, uni tashkil qilish, olib borish, takomillashtirish, xulosa chiqarish, boshqarish, nazorat, baholash kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Interfaol metod – bu ta'lrim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishlarini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta'limga asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma'ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko'pligi, o'quvchilar tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlari yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sind jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlarni bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lrim-tarbiyaviy ishlarni samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega.

Talaba va o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish uchun biologiya darslarida muammoli vaziyatlardan foydalaniladi. Muammoli savollar mavzuni o'rganishning istalgan bosqichida qo'yilishi mumkin: materialni tushuntirishda (dars boshida), o'rganilayotgan masalaga qiziqish uyg'otish uchun, olingan bilimlarni mustahkamlashda, bu taqdim etilgan materialni umumlashtirishga yordam beradi. O'quvchi va talabalarni mustaqil xulosa chiqarishlariga olib keladi; olgan bilimlarini nazorat qilishda, amalda va ijodiy qo'llash imkonini yaratadi. Darslarda muammoli vaziyatlarni, murakkab masalalarini yaratish, ixtiro va tadqiqot vazifalarini, qarama - qarshiliklarni hal qilish yo'llarini izlash, bir masala bo'yicha turli nuqtai nazarlarni va turli pozitsiyalarni taqdim etish kabi uslubiy usullarni qo'llash, o'rganish imkonini beradi. Bu o'quvchi va talabalarni taqqoslash, umumlashtirish, qiyin muammoli vaziyatlardan tez chiqib ketish va tez xulosalar chiqarishga undaydi.

Yuqorida qo'llaniladigan interfaol usullardan tashqari biologiya darslarida o'quvchilar faolligini oshirishga yordam beruvchi darsdan tashqari, biologiya kabinetida, biologiya burchagida, biologiya tajriba maydonchalarida mustaqil yoki kichik guruhlarda bajariladigan biologik topshiriqlar ham qo'llaniladi. Talaba va o'quvchilar biron bir hodisani, jarayonni, o'sish va rivojlanishni o'rganadilar, uni hal qilish yo'llarini izlaydilar, turli taxminlarni ilgari suradilar, dalillarni keltiradilar, izlab topadilar va bu shubhasiz, maktab o'quvchilarining aqliy faoliyatini faollashtirishga, mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga, mustaqillikka va pirovard natijada muammoli vaziyatlardan tez chiqib ketishni shakllanishiga va rivojlanishiga yordam beradi. Biologiya fanlarini o'quvchilarga o'rgatishga har tomonlama, ko'p qirrali qiziqishni uyg'otish juda muhimdir. Vazifalarning turlari har xil bo'lishi mumkin: mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga ko'maklashish; tabiiy ob'ektlarni tanib olish; farazlarni ilgari surish va isbotlash malakalarini shakllantirish; tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirishga ko'maklashish: nazariy bilimlar va amaliy bilimlar o'rtasida aloqa o'rnatishga yordam berish; idrok, tasavvur qilish, jarayonlarni tahlil qilish bilan bog'liq o'z-o'zini bilim darajasini kuzatish va talaba, o'quvchilar uchun yangi ma'lumotlarni tushunib, amalda yetkazib bera olishni o'z ichiga oladi.

Biologiya darslarini o'tkazishda aqliy faoliyatni rag'batlantirish uchun vaziyatli topshiriqlardan ham foydalaniladi. She'riyat ham biologiya darslariga kognitiv qiziqishni rivojlantirish vositasi bo'lib, uning yordamida darsda muammoli vaziyatlar yaratiladi. Botanika darslarida topishmoqli she'rlar, maqollar, ertaklardan tez-tez foydalaniladi. Birinchidan, mavzularni turli interfaol metodlar bilan o'tishning juda katta tanlovi mavjud, ikkinchidan, turli muammolardan foydalanishni ta'siri har doim sezilarli bo'ladi va uchinchidan, ular darsning istalgan bosqichida o'quvchilarning charchoqlarini kamaytiradi.


Biologiya fanidan mustaqil ta'limi rivojlantirish uchun uyda o'tkaziladigan tajribalar katta ahamiyatga ega bo'lib, ularda bolalar mustaqil ravishda yoki kattalar yordamida oddiy tajribalar o'tkazadilar va shu bilan ilmiy yondashishga birinchi qadamlarini qo'yadilar. Uyda o'tkaziladigan tajribalar xavfsiz bo'lishi va oddiy, oson mavjud bo'lgan materiallardan foydalanishga asoslangan bo'lishi kerak. Bunday topshiriqlar nafaqat faol kognitiv faoliyatni rag'batlantiradi, balki o'quvchilarni o'z xulosalarini aniq va jiddiy shakllantirishga o'rgatadi.

Maktablarda kichik guruhlarda ishslash texnologiyasi interfaol metodi yordamida "Bakteriyalar. Protoktistalar. Zamburug'lar" mavzusidagi dars o'tilganda quyidagicha jarayon kuzatiladi hamda ijobiy natijalar olish imkonи yuqoriligi aniqlandi:

7- sinf biologiya darsligining "Bakteriyalar. Protoktistalar. Zamburug'lar" mavzusini kichik guruhlarda ishlash texnologiyasi interfaol metodi yordamida o'tish orqali darsning yakuniy samaradorligini oshirish mumkin. Kichik guruhlarda ishlash texnologiyasi o'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga, muloqotga kirishish ko'nikmasining takomillashishiga, barcha o'quvchilarni jalb etishga, vaqt ni tejashta hamda o'z - o'zini va guruhlararo baholash imkoniyatini taqdim etishi bilan muvaffaqiyatli metod hisoblanadi.

Kichik guruhlarda ishlash interfaol texnologiyasi quyidagicha olib boriladi:

O'qituvchi o'quvchilar bilan kichik guruhlarda ishlashni tashkil etish uchun faoliyat yo'nalishini aniqlaydi. Muammodan bir-biriga bog'liq bo'lgan masalalar belgilanadi. Mavzuning kerakli asosi, tushunchalari yaratiladi. Mavzuni o'rganishdan oldin o'quvchilar mazkur muammo haqida tushunchaga ega bo'lishlari lozim. Keyin guruh o'quvchilari kichik guruhlarga, ya'ni 3-5 kishidan bo'lib bo'linishadi. O'qituvchi tomonidan o'quvchilarga aniq ko'rsatmalar asosida qisqacha mavzuni oldingi mavzuga bog'lab tushuncha beriladi. Berilgan muammoni yechishda o'qituvchi o'quvchilarni qo'llab-quvvatlab va yo'naltirib turadi. Mavzu so'ngida muhokama qilinadi.



Ushbu interfaol metod bilan dars o'tilganda:

1. O'quvchi kichik guruhlarda ishlaganida, darsda faol ishtirok etish imkoniga ega bo'ldi, boshlovchi rolida bo'lishga, bir-biridan o'rganishga va turli nuqtai-nazarlarni qadrlash imkoniga erishdi.
2. Mavzu ushbu metod orqali o'tilganida Samarqand shahar 49-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarida o'zlashtirish ko'rsatkichi 80% dan oshganligi kuzatildi.
3. O'quvchilarni oldingi va keying mavzularni mustaqil o'zlashtirib olishga qiziqishlari yanada kuchayganligi kuzatildi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'quv jarayonida ko'rib chiqilayotgan yangi interfaol usullardan foydalanish biologiya kursida o'quvchi va talabalarning kognitiv qiziqishini rivojlantirishga va bilimlarini chuqurlashtirishga, auditoriyada 50 x 50 tizimida ishlay olishga yordam beradi. Bu usullar oqituvchining metodik mahoratida mujassamlashgandagina samarali

kuchga ega boladi va bu mahoratni ragbatlantiradi. Demak, maktab oquvchilarining bilish faoliyatini, mustaqil ishlab, o'rganish qobiliyatini faollashtirishning uslubiy vositalari va usullari tizimi har bir oqituvchi tomonidan amaliy ozlashtirilishi, tegishli ko`nikma va malakalarni shakllantirilishi zaruratidan kelib chiqadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Bondarchuk M.M. Umumiy biologiya bo'yicha qiziqarli materiallar va faktlar Savol-javoblar 5-11 sinflar.
2. Boliyev M. N. Ta'limi pedagogik texnologiyalar. Uslubiy qo'llanma. Samarqand. SamDCHTI nashriyoti, 2023. 80 bet.
3. Islamov B. S. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish. Uslubiy qo'llanma. Samarqand, SamDU nashri, 2011. 257 bet.
4. O'qituvchi: Volgograd, 2007. 2. Vysotskaya M.V. 5-11-sinflarda noan'anaviy biologiya darslari.
5. O'qituvchi: Volgograd, 2004. 3. Murtazin G.M. Biologiya o'qitishning faol shakllari va usullari M: Ta'lim, 1989 yil.
6. Pustoxina O.A. Zamonaviy maktabdag'i dars . O'qituvchi: Volgograd, 2009 yil.
7. Saidaxmedov N.S. "Pedagogik amaliyotda yangi texnologiyalarni qo'llash namunalari", Toshkent, 2000-yil.
8. Azizzxo'jayeva N.N. "Zamonaviy pedagogik texnologiyalar", Toshkent, 2002-yil.